O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Rektor G.Rixsiyeva
__________

2021 yil “25” avgust

# MUMTOZ JANRLAR TIZIMI VA USLUBLAR TIPOLOGIYASI

## FANNING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230000 | – Tillar |
| **Mutaxassislik:** | 70230102 | – Mumtoz filologiya (sharq tillari bo‘yicha) |

Toshkent – 2021

| | |
|---|---|
| | filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Jo'raboyev O. – O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi<br>Ismoilov I. – Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti instituti katta o'qituvchisi, falsafa bo'yicha filologiya fanlari doktori (PhD) |



| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar |
|---|---|---|---|
| MJT108 | 2021-2022 | 1-2 | 4/4 |
| **Fan/modul turi** | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** |
| Majburiy | O'zbek/rus | | 4/4 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Mumtoz janrlar tizimi va uslublar tipologiya | 120 | 180 | 240 |

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan **maqsad** - talabalarga Sharq mumtoz janrlar tizimi haqidagi umumlashtiruvchi bilimlarni yetkazish.

Fanning **vazifalari** – talabalarga badiiy adabiyotni to'laqonli tushunishda ularning janr xususiyatlarining metodologik asosga egaligini; mumtoz Sharq adabiyotining boy janrlar tizimiga egaligini; janr va mavzu; janr va uslub; janr va badiiy mahoratning o'zaro bog'liqligini tushuntirishga qaratilgan.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzullar kiradi:**

**1-mavzu. "Mumtoz janrlar tizimi va uslublar tipologiyasi" fanining mazmuni va predmeti**

Tipologiya tushunchasi. Uning talqinlari. Uning ilmiy bilish metodlaridan biri ekanligi. Mumtoz Sharq adabiyotidagi janrlar va uslublar orasidagi yaqinlik va o'ziga xosliklar.

**2-mavzu. Adabiy tur va janrlar to'g'risida tushuncha. Nazm**

Sharq adabiyotida nazmning yetakchi mavqe'yi; "Sharq she'riyati" tushunchasi.

**3-mavzu. Nasr**

Nasr haqida umumiy tushuncha; nasr xillari. Adabiy va tarixiy nasr. Rabg'uziy, Navoiy, Bobur, Xoja, Anbar Otin va b.ning nasriy asarlari.

**4-mavzu. "Uslub" tushunchasi**

Uslub, uning adabiyot tarixi va adabiy jarayon hamda ijodkor mahorati bilan bog'liqligi. Sharq adabiyotida "Xind uslubi" va "Xuroson uslubi"; tushunchalari.

**5-mavzu. "Uslub" va ilmi balog'a**

"Ilmi balog'a" va uslubshunoslik. Mumtoz adabiyotda janr va uslub haqida nazariy ma'lumotlar beruvchi asarlar (Rodubniy, Rashiduddin Vatvot, Qays Roziy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy va boshqalar merosi) haqida

| | |
|---|---|
| | umumiy ma'lumot.<br><br>**6-mavzu. Nazm turlari. G'azal.**<br>"G'azal"ning arab va fors-tojik adabiyotidagi o'rni. Uning turlari ("orifona", "oshiqona" va "rindona" g'azallar) fors adabiyotida g'azalning eng rivojlangan davri (XIII–XV asrlar).<br><br>**7-mavzu. Turkiy g'azalchilik an'an'asi**<br>Navoiygaca bo'lgan turkiy g'azalchilik. Rabg'uziy, Sayfi Saroyi, Atoyi, Lutfiy g azallari.<br><br>**8-mavzu. Turkiy g'azal. Uning taraqqiyotida Navoiy davri**<br>Navoiy g'azallari; ularni tasniflashdagi bosh mezon; mazmun va shakl birligi; timsollar olami, badiiyat sirlari; Shoir g'azallaridagi muallif shaxsiyati.<br><br>**9-mavzu. Keyingi davrlardagi g'azalchilik**<br>Navoiyning keyingi davr shoirlariga ta'siri; Bobur, Fuzuliy, Mashrab, Munis, Ogahiy, Amiriy, Nodira va g'azalnavis shoirlar.<br><br>**10-mavzu. Mustazod**<br>"Mustazod"ning janr [ususiyatlari va poetikasi<br><br>**11-mavzu. Musammatlar**<br>"Musammat" tushunchasi; uning xillari.<br><br>**12-mavzu. Musallas va murabba'lar**<br><br>**13-mavzu. Munozara**<br><br>**14-mavzu. Muxammas**<br><br>**15-mavzu. Musaddas**<br><br>**16-mavzu. Musabba'. Musamman.**<br>Tase' va mashru'. Mustaqil musammatlar; g'azal asosida yaratilgan musammatlar; musammat an'anasining davom ettirilishi.<br><br>**17-mavzu. Tarkibband**<br><br>**18-mavzu. Tarje'band**<br>"Tarje'band"lar haqida tushuncha; mazmunga ko'ra yana janrga ajralish hollari; uning falsafiy tafakkur uchun qulayligi; bu janrda marsiyalar bitilishi; Nosir Xusrav, Sa'diy, Hofiz, Navoiy tarkibband va tarji'bandlari.<br><br>**19-mavzu. Masnaviy – she'riy janr sifatida**<br>"Masnaviy" haqida tushuncha; uning ko'rinishlari - katta va kichik syujetli asarlar, dostonlar. "Qutadg'u bilig", "Xusrav va Shirin" (Nizomiy, Xusrav Dexlaviy), "Xamsa" (Navoiy), "Yusuf va Zulayxo" (Homid Balxiy), |




| | |
|---|---|
| | 7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>9. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2002.<br>10. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика (муаллиф У.Тўйчиев). Масъул муҳаррирлар: Э.Каримов, Б.Саримсоқов. – Тошкент, Фан, 1992.<br>11.Болтабоев Н., Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006<br>12.Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент, Фан, 1983.<br>13.Қосимов Б. Миллий уйғониш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2004<br>14.Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг "Қутадғу билиг"и ва ва айрим жанрлар такомили (маснавий, тўртлик, қасида). – Тошкент, "Аср – Матбуот", 2004.<br>15.Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопеджияси, 2008.<br>16.Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы. Учебное пособие. – Москва, 2006.<br>17.Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2004.<br>18. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр. Нашрга тайёрдловчи ва сўзбоши муаллифи Н.Жумахўжа. – Тошкент, O'zbekiston, 2015.<br><br>**Axborot manbalari**<br>19. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>20. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>21. www.ziyonet.uz<br>22. www.ziyonet.uz;<br>23. www.bilim.uzwww ziyouz uz<br>24. https://ziyouz.uz/kutubxona/ |


| | |
|---|---|
| **7.** | O'quv dasturi "Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "27" august dagi "1" – sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br><br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil "28" august dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>To'xliyev B. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz |

| | |
|---|---|
| | xosliklar;<br>Mumtoz Sharq poetikasining asosiy tushuncha va manbalari;<br>adabiyotidagi janrlar va uslublar orasidagi yaqinlik va o'ziga xosliklar<br>•haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***<br>•mazrur tushuncha va manbalarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***<br>•arabiy, forsiy va turkiy tillardagi poetikaga oid asosiy tushunchalar, ta'rifii va atamalarni amalda qo'llay olish;<br>•o'rta asr turli adabiy maktablari yodgorliklarining uslubiy farqlarini aniqlash;<br>•oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida Sharq mumtoz filologiyasining barcha yo'nalishlaridagi fanlaridan dars berish;<br>•o'quv yurtida ta'lim olayotganlarning bilimini baholay olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>ma'ruzalar;<br>interfaol keys-stadilar;<br>seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>guruhlarda ishlash;<br>taqdimotlarni qilish;<br>individual loyihalar;<br>jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Vohidov R.J., Eshonqulov X. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (eng qadimgi zamondan XVI asrgacha). Darslik. – Toshkent, 2006.<br>2. Шомуҳамедов Ш. Форсий шеъриятнинг асосий шакллари. Ўкув кўлланма. – Тошкент, 2004.<br>3. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr). Darslik. – Toshkent, 2006.<br>4. Rahmonob N. O'zbek adabiyoti tarixi (eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha) – Toshkent, "Sano-standart", 2017.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. |



| | |
|---|---|
| | "Gul va Navro'z" (Haydar Xorazmiy).<br><br>**20-mavzu. Qasida**<br>Qasida haqida tushuncha. Uning janr xususuyatlari (Rudakiy, Unsuriy, Salmon Sovajiy, Xoqoniy, Ismat Buxoriy; Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy, Navoiy qasidalari misolida); Qasida turlari: bahoriya, holiya, ishqiya, madhiya, faxriya, marsiya, hajviya va b.<br><br>**21-mavzu. Marsiya**<br>Marsiya haqida tushuncha. Uning janr xususuyatlari. Qadimiy marsiyalar – Alp Ertunga (Afrosiyob); Rudakiyning Shahidiy Balxiyga marsiyasi, Sakkokiy Ulig 'gbekka marsiyalari.<br><br>**22-mavzu. Noma**<br>Noma haqida tushuncha. Uning janr xususuyatlari. "Muhabbatnoma" va "Latofatnoma" boshqa asar tarkibidagi "noma"lar.<br><br>**23-mavzu. Sayohatnoma**<br>Sayohatnoma haqida tushuncha. Uning janr xususuyatlari.<br><br>**24-mavzu. Soqiynoma haqida tushuncha**<br>Soqiynomalar haqida tushuncha, unda muallif ruhiyati; autorika - lirik chekinishlar; dostonlar "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy" fasllari so'ngida soqiyga murojaatlar.<br><br>**25-mavzu. Masal va munozara**<br>"Masal" haqida tushuncha; pand, hikoyat va masal; masal va folklor; Gulxaniyning "Zarb ul-masal", Nishotiyning "Husn va dil", "Gul va Daf", "Nay va Shamshod" masallari;<br>"Munozara" janrining qadimiyligi; Avesto ("Draxti asurik"), Asadiy Tusiy (Munozarai "Shab-u ruz", "Osmon-u zamin", "Arab-u ajam"), Ahmadiy ("Rudnoma orasinda munozara"), Amiriy ("Bang va Chog'ir"), Yaqiniy ("O'q va Yoy"), Hamza ("Mevalar munozarasi") va boshqa ijodkorlarning munozaralari.<br><br>**26-mavzu. Ruboiy**<br>"Ruboiy"ning tuzilishi, vazni, qofiyalanishi; "xosiy" va tarona ruboiylari; ruboiyda tezis, antitezis (qiyoslash), moddai ruboiya, sintez tushunchalari; Xayyom, Pahlavon Mahmud, Navoiy, Bobur ruboiylari.<br><br>**27-mavzu. Tuyuq**<br>"Tuyuq"ning kelib chiqishi va poetirasi. Navoiy va Boburning tuyuqqa bergan ta'riflari, tuyuq shartlari (tajnisli va tajnissiz qofiya, vazn, tuyuqning sof turkiy janrligi).<br><br>**28-mavzu. Qit'a**<br>"Qit'a" haqida tushuncha; qit'ada muallif kechinmalari. Sa'diy, Jomiy, |

Navoiy qit'alari.

**29-mavzu. Fard**

"Fard"larning alohida bayt holida bo'lishi, ularning hikmatli so'zlarga aylanib ketishi.

**30-mavzu. Muammo, tarix va chiston**

"Muammo"da ism yashirish san'ati, ularni yechish usullari; muammo haqidagi nazariy qo'llanma asarlar; Navoiy "Mufradot"idan misollar;

"Tarix" – alohida biror voqea, vafot va tavallud sanalariga bag'ishlangan tarixlar; tarixning boshqa she'rlar, nasriy parchalar tarkibida kelishi, ularni yechishda arab (alifbosi) yozuvi va "abjad"dan istifoda qilish;

"Chiston" – topishmoqlarning tuzilishi, unga yashiringan predmet yohud hodisaning belgilari, maqsadning ularga ishoralar orqali topib olinishi; Navoiy chistonlari.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

**Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda ilmi toliblar kursning muhim qirralarini amaliy jihatdan o'rganishga e'tibor qaratadilar.

1. Janrlarga oid zamonaviy tadqiqotlar bilan tanishish.
2. Nazm haqda ijpodkorlarning qarashlari.
3. Nasriy asarlar matni ustida ishlash (Rabg'uziy, Navoiy, Bobur, Xoja, Anbar Otin va b.)
4. "Xind uslubi" va "Xuroson uslubi" namunalarini tahlil qilish.
5. Mumtoz adabiyotda janr va uslub haqida nazariy ma'lumotlar beruvchi asarlar
6. Rabg'uziy, Atoiy va Lutfiy g'azallari
7. Navoiy g'azallari
8. Navoiy g'azallari
9. Navoiydan keying davr g'azallari
10. Mustazodlar matni ustida ishlash.
11. Munozara namunalari tahlili.
12. Murabba namunalari tahlili.
13. Musammatlar matni ustida ishlash
14. Muxammas namunalari tahlili.
15. Musaddas namunalari tahlili.
16. Musamman namunalari tahlili.
17. Tarkibbandlari tahlili.
18. Tarjibandlari tahlili.
19. Masnaviylar tahlili.
20. Qasidalar tahlili
21. Marsiyalar tahlili.
22. Noma namunalari tahlili
23. Sayohatnomalar tahlili



24. Soqiynomalar tahlili
25. Masallar tahlili
26. Ruboiylar tahlili
27. Tuyuqlar tahlili
28. Qit'alar tahlili
29. Fardlar tahlili
30. Muammo, tarix va chistonlar tahlili.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini qo'lyozma va toshbosma matnlar o'qish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko'rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari va dars yo'rug'laridan kurs mavzularini o'rganish;
- mumtoz janrlar va adabiy uskubga oid mavzularni o'zlashtirish;
- Ushbu yo'nalishda yaratilgan tadqiqotlardan **xabardor bo'lish.**

Mustaqil topshiriqlarning mavzulari:

1. Poetikaga oid ayrim asarlar haqida axborot tayyorlash
2. Aristotelning "Poetika" asarini ixcham tarzda konspektlashtirish.
3. Forobiyning poetikaga oid asarlari boblariga annotansiya yozish.
4. Bir asar ("Devonu lug'otit-turk", Rabg'uziy, Atoiy, Lutfiy) yoki uning parchasiga oid uslubiy xususiyatlarni aniqlash.
5. Sharq poetikasi manbalaridan birining nashriga taqriz yozish.
6. Sharq poetikasi manbalaridan biri ("Hadoyiq us-sehr", "Badoe' ek-afkor", "Al mo'jam", "Funun al-balog'a" ...) haqida ma'ruza tayyorlash.
7. "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'atit turk", "Hibat ul-haqoyiq" asarlari.

Sharq mumtoz adabiyoti namoyondalaridan birining asarini tahlil qilish (janr, uslub, she'r san'atalari, vazn, qofiya). Xayyom va Bobur ruboiylarini qiyoslab, nazorat ishi yozish (2-3 sahifa). Aristotelning "Poetika" kitobidan qisqa konspekt tayyorlash. Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiylarning "Xamsa" tarkibidagi dostonidan parcha haqida suhbatga tayyorgarlik.

q

## V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

**Talaba bilishi kerak:**

Mumtoz Sharq adabiyotidagi janrlar va uslublar orasidagi yaqinlik va o'ziga

| | |
|---|---|
| | O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil “28” avgust dagi “1” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>To‘xliyev B. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi professor, filologiya fanlari doktori |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Jo‘raboyev O. – O‘zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi Alisher navoiy nomidagi adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi<br>Ismoilov I. – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi, falsafa bo‘yicha filologiya fanlari doktori (PhD) |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G.Rixsiyeva
__________
2021 yil “21” avgust

# ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI

## FANNING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230000 | – Tillar |
| **Mutaxassisliklar:** | 70230102 | – Mumtoz filologiya (sharq tillari bo‘yicha) |
| | 70230301 | – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (sharq tillari bo‘yicha) |

Toshkent – 2021

| | |
|---|---|
| | natijalarini to'g'ri Aks ettira olish o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1.Shermuhamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. Toshkent. "Fan va texnologiya". 2014. 512 b.<br>2.Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr). Darslik. – Toshkent, 2006.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. O'quv **qo'llanma.** – Toshkent, 2002.<br>6. Qosimov B. Milliy uyg'onish. O'quv qo'llanma. – **Toshkent, 2004.**<br>7. Boltaboev H., Rahmonov N. O'zbek mumtoz **adabiyoti namunalari.** O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006.<br>8. Sodiqov Q. Ko'k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2004.<br>9. Sodiqov Q. Qadimgi turk falsafasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2009.<br>10. G'anieva S. Havoiy yodga olgan asarlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2004.<br>11. Shidfar B.Ya. Obraznaya sistema arabskoy klassicheskoy literaturi. Uchebnoe posobie. – Moskva, 2006.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. www.gov.uz – O'zbekiston respublikasi hukumat portali.<br>2. www.lex.uz – O'zbekiston respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.turfanforschung.com<br>4. www.tonyukuk.com |
| **7.** | O'quv dasturi "Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "27" avgust dagi "1" – sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. |

| | |
|---|---|
| | ▪ Mumtoz filologiyaning yo‘nalishlari va sohalarini bilish;<br>▪ Mumtoz filologiya sohasida yaratilgan tadqiqotlardan xabardor bo‘lish.<br>Mustaqil topshiriqlarning mavzulari:<br>1. Ilmiy muammo tushunchasi. Uning qo‘yilishi va shakllantirilishi.<br>2. Filologik tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari.<br>3. Tadqiqotning asosiy metodlari.<br>4. Manba va materiallarni tanlash, saralash va ishlab chiqish.<br>5. Olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirishdagi metodlar.<br>6. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish.<br>7. Matn va xulosani shakllantirish yo‘llari.<br>8. Ishlarni yakunlash ba rasmiylashtirish qoidalari. |
| **3.** | **V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>“Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fanini o‘zlashtirish jarayonida magistr:<br>Ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishdani asosiy metodologiya va metodlar;<br>• Fakt va materiallarni saralash va ulardan foydalanish;<br>• Ilmiy faraz va tezislarni qo‘yish va ularni hal qilish usullari;<br>• Magistrlik dissertatsiyasining asosiy qismlari va ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlar tizimi;<br>• Yakunlangan ishni rasmiylashtirish qoidalari gaqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***<br>• Ilmiy-tadqiqotlar uchun xos bo‘lgan nazariy va amaliy ish metodlari haqida ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***<br>• Ilmiy-tadqiqotga oid asosiy tushuncha va atamalarni bilishi, ulardan o‘z o‘rnida foydalana olish;<br>• Ilmiy tadqiqot olib borish metodlari;<br>• Ilmiy xulosalarni amaliyotda qo‘llashning ko‘rinishlari va metodlari;<br>• Muammoga oid manba va materiallar ustida ishlay olish;<br>• Ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rgangan bilimlarini qo‘llay olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>Ma’ruzalar;<br>Interfaol keys-stadilar;<br>Seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>Guruhlarda ishlash;<br>Taqdimotlarni qilish;<br>Individual loyihalar;<br>Jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil |



| **Fan/modul kodi**<br>ITM104 | | **O‘quv yili**<br>2021-2022 | **Semestr**<br>1 | **ECTS - Kreditlar**<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | | **Ta’lim tili**<br>O‘zbek | | **haftadagi dars soatlari**<br>4 | |
| **1.** | **Fanning nomi** | | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Ilmiy tadqiqot metodologiyasi | | 60 | 60 | 120 |
| **2.** | **I. Fanning mazmuni**<br>Fanni o‘qitishdan **maqsad** magistrantlarni mustaqil ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini amalga oshrishilari uchun imkon beradigan ko‘nikma, malaka hamda kasbiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat.<br>Fanning vazifalari:<br>– magistrlik dissertatsiyalarini yozishda qo‘l keladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda zarur bo‘ladigan kompetensiyalarni shakllantirish;<br>– Filologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining zamonabiy metodlari haqidagi bilimlarni shakllantirish;<br>– Olingan bilimlarni o‘z amaliyotlrida tatbiq eta oladigan darajadagi malakalarni hosil qilish;<br>– Tanlagan mabzulari bo‘yicha milliy hamda xalqaro maydondagi ilmiy-tanqidiy maqola va tadqiqotlarni tanqidiy nuqtai nazardan baholay olish;<br>– O‘zlarining nazariy va amaliy tadqiqotlari doirasida fakt va materiallarni miqdor va sifat jihatdan tahlil qila olishga imkon beradigan metodlardan foydalana olish;<br>– Asosiy va ikkilamchi manba va materiallar (manbalar, statistik ma’lumotlar, hukumatning qarorlari, farmoyishlar, ilmiy nashrlar)dan foydalana olish;<br>– Ilmiy-tadqiqot ishlarini mustaqil tarzda tashkil etishga imkon beradigan, ilmiy natijalarini boshqalarga ko‘rsatib (prezentaцiya qilib) bera oladigan darajadagi ko‘nikma ba malakalarga ega bo‘lish kerak.<br>**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:** | | | | | |

**1-mavzu. Ilmiy tadiqotning metodologik asoslari**
1. Ilmiy tadqiqotning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Metod va metodologiya tushunchalari.
3. Nazariy bilimlar va ularning ilmiy tadqiqot jarayonidagi o‘rni va ahamiyati.

**2-mavzu Ilmiy tadqiqot jarayoni**
1. Tadqiqotning bosqichlari.
2. Har bir bosqichning o‘ziga xos jihatalari.

**3-mavzu. Ilmiy tadqiqot metodlari tasnifi**
1. Empirik Tadqiqotlar metodlari.
2. Nazaiy tadqiqot metodlari.
3. Bilishning umummantiqiy metod ba yo‘llari
4. Xususiy fanlarning o‘rganish metodlari

**4-mavzu. Ilmiy tadqiqotning empirik va nazariy bosqichi**
1. Tadqiqotning bosqichlari.
2. Empirik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish ba umumlashtirish jarayoni..
3. Tadqiqotning nazariy bosqichi tushunchasi.
4. Ushbu bosqichlarni amalga oshirish xususiyatlari.

**5-mavzu. Ilmiy tadqiqot muammosi, uning qo‘yilishi va ifodalanishi**
1. Ilmiy muammoning mohiyati.
2. Muammoning qbo‘yilishi va uning echimi.

**6-mavzu. Tadqiqotning dolzarbligi**
1. Me’yoriy hujjatlar.
2. Muammoning o‘rganilish darajasi.
3. Kutilayotgan natijalar.

**7-mavzu. Ko‘chirma va havolalar.**
1. Ko‘chirma va uning vazifalari
2. Havola va uning shakllari.

**8-mavzu. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayoni**
1. Axborot manbalari tadqiqi.
2. Yo‘l-yo‘lakay qayd va kuzatishlar ifodasi.
3. Ilmiy adabiyotlar ustida ishlash.

**9-mavzu. Tadqiqot qo‘lyozmasi ustida ishlash.**
1. Fakt va materiallarni berish tartibi.
2. Tezis, isbot va xulosalar izchilligi.



**10-mavzu. Tadqiqotning tili va uslubi.**
1. Ilmiy uslub.
2. Tadqiqtda ona tili imkoniyatlarini ko‘rsatish muammolari.

**11-mavzu. Sintaksis va fikr ifodasi.**
1. Fikr aniqligi va sintaksis.
2. Mantiq ifodasi va sintaksis.

**12-mavzu. Matnshunoslik muammolari**
1. Mualliflikni aniqlash muammolari.
2. Manba yaratilgan davr(sana)ni aniqlash

**13-mavzu. Magistrlik dissertatsiyasi**
1. Dissertatsiya va uning tarkibiy qismlar.
2. “Kirish”

**14-mavzu. Xulosalarni shakllantirish**
1. Tezis va uning isboti.
2. Boblardagi xulosalar.
3. Yakuniy xulosalar.

**15-mavzu. Adabiyotlar ro‘yxati. Tahrir va uning ahamiyati**
1. Bundagi asosiy tamoyillar.
2. Adabiyotlarni to‘g‘ri aks etttirish muammolari.
3. Asosiy imloviy va ishoraviy xatolar.
4. Keng tarqalgan uslubiy notugalliklar.

## III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

### Amaliy mashg‘ulot mavzulari

1. Fanga oid asosiy tushuncha ba atamalar tizimi.
2. Tadqiqot bosqichlari.
3. Mavjud tadqiqotlar namunalari bilan tanishish.
4. Ilmiy tadqiqot metodlarining amaldagi ko‘rinishlari.
5. Amaldagi muammolarga oid tadqiqot namunalari.
6. Magistrlik dissertatsiyasining tarkibi va mazmuni.
7. Mavjud magistrlik dissertatsiyalari bilan tanishish.
8. Dissertatsiyani rasmiylashtirishdagi asosiy talablar tizimi.

## IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Talabalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko‘rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- Darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari va dars yo‘rug‘laridan kurs mavzularini o‘rganish;
- Mutaxassislikka kirish bilan bog‘liq mavzularni o‘zlashtirish;